



# IJIRSET

International Journal of Innovative Research in  
SCIENCE | ENGINEERING | TECHNOLOGY

e-ISSN: 2319-8753 | p-ISSN: 2320-6710



# INTERNATIONAL JOURNAL OF INNOVATIVE RESEARCH

IN SCIENCE | ENGINEERING | TECHNOLOGY

Volume 10, Issue 6, June 2021

**ISSN** INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INDIA

**Impact Factor: 7.512**



9940 572 462



6381 907 438



ijirset@gmail.com



www.ijirset.com

## INNOVATION TA'LIM SHAROITIDA MATEMATIKA DARSLARING SAMARODORLIGI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI (BOSHLANG'ICH SINF MISOLIDA)

**Muxamadaliyeva Madinabonu Bohodirjon qizi**

Far DU Maktabgacha va boshlang'ich ta'lism fakulteti. Boshlang'ich ta'lism uslubiyoti kafedrasi o'qituvchisi

**ANNOTATSIYA:** Maqolada asosan innovatsion ta'lism va bu sohada qilinadigan ishlar haqida ma'lumotlar berib boriladi. Matematika fani darslarining samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi texnologiyalar haqida qisqacha yoritiladi.

**Kalit so`zlar:** Innovatsiya, texnologiya, xronologik, diagramma, interaktiv, video-topishmoq, internet.

Bugungi kunda O'zbekistonda ham ta'lism jarayonida matematik vosita sifatida foydalaniladigan dasturlarning maxsus bosqichlari shakllanmoqda. Hozirda umumta'lism darslarida foydalaniladigan internetga joylashtirilgan ko'plab dasturlar mavjud. Bular orasida birinchi navbatda elektron darsliklarni kiritish mumkin. Kompyuter texnologiyalari turli xil interaktiv xarakterdagи topshiriqlardan foydalanish imkoniyatini yaratib beradi. Masalan, o'quvchilar voqealarni xronologik ketma-ketlikda joylashtirish, fanga oid atamalar va tushunchalarni to'g'ri izohlash yoki ularning ma'nosini mos ravishda strelka bilan ko'rsatish yoki berilayotgan mavzudagi tayanch so'zlarni to'ldirish, test topshiriqlarini bajarish, krosvordlarni yechish kabi topshiriqlarni qanday bajarganliklarini katta ekranda multimedia yordamida tushirilgan javoblar bilan taqqoslab, bilib borishlari mumkin bo'ladi. O'qituvchi dars jarayonida kompyuter yordamida mavjud materiallarni turli xil shaklda: slaydlar, video va audio diagrammalar, jadvallar, musiqiy tarzda taqdim etiladi. Kompyuter yordamida dars jarayonini tashkil etilishi o'quvchilar ongini va xotirasiga kuchli ta'sir qilib, eslab qolish jarayonini osonlashtiradi, darsni qiziqarli jarayonga aylantirib boriladi.

Maktabgacha yoshdag'i bolalarda boshlang'ich matematik tushunchalarni shakllantirish jarayoni bolani maktabga tayyorlashda asosiy o'rinni egallaydi. Bolalarni nafaqat hisoblash va o'lchash, balki mantiqiy fikr yuritishga, samarali fikrlashga o'rgatish kerak. Muammoli muammolarni hal qilish jarayonida bola o'zi uchun insoniyatning asosiy mulkini tashkil etadigan qonunlar, qoidalar, tamoyillarni kashf etadi. U ularni tayyor holda qabul qilmaydi va yangisini kashf etish bilan ijodiy jarayonga qo'shiladi. Shu sababli, ta'lism bolani ijodiy faoliyat asosida o'zini rivojlantirish, ongini kengaytirish istiqbollariga yo'naltirishi kerak. Ko'pincha bolalarni maktabga tayyorlash ularni hisoblash, yozish va o'qishni o'rgatish bilan kamayadi. Ayni paytda, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich maktabdagi eng katta qiyinchiliklarni ko'p miqdordagi bilim, ko'nikma va ko'nikmalarga ega bo'limgan bolalar emas, balki fikrlash istagi va odati bo'limgan intellektual passivlikni ko'rsatadigan bolalar boshdan kechirishadi. yangi narsani o'rganish istagi. Shu sababli, maktabgacha ta'limga asosiy maqsadi bolaning har tomonlama rivojlanishi bo'lishi kerak: uning intellektual va ijodiy qobiliyatlarining motivatsion va irodavii sohasini rivojlantirish.

Bugungi kun ta'limi o'qituvchidan inovatsion ta'limga asoslangan pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Boshlang'ich sinflarda ayrim mavzular asosida o'qitishning zamonaviy usullarini tatbiq etish va ularni amalda qo'llash eng dolzarbdur.

"**Video-topishmoq**" metodi - ushbu metoddan foydalanishda quyidagi harakatlar ketma-ketligi olib boriladi:

- o'quvchilar har bir lavhada qarab, qanday jarayon aks ettirilganiga izoh berishadi;
- jarayonlarning mohiyatini daftarlariga yozib borishadi va qayd etishadi;
- o'qituvchi tomonidan berilgan har bir savolga birin ketin javob berishadi.

Mazkur metod asosida mavzuga doir ma'lumotlarni kompyuter orqali videolavha namoyish etiladi. O'quvchilar videolavha mavzusi, unda ifodalangan mavzu haqida, o'z fikrlarini bildirishadi. Boshlang'ich ta'limga zamonaviy axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan

yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalaydi.

Har bir o'qituvchi ijodkor bo'lishi kerak, u har bir o'quv soatiga yaxshilab tayyorlanib yangilik bilan darsga kirishi kerak, chunki har darsda takrorlanadigan bir xillik o'quvchini darsga va fanga qiziqishini kamaytiradi, natijada dars samaradorligining pasayishiga olib keladi va yosh avlod qiziqishini susaytiradi.

Axborot texnologiyalarining o'qituvchi va o'quvchi uchun ahamiyatli jihatlari quyidagilar:

- ✓ o'quvchilarning diqqatini jamlash va shunga yo`naltirish;
- ✓ ma'lumot to'g'risidagi tasavvurni kengaytirish va boyitish;
- ✓ izlanuvchanlik, ijodkorlik va mustaqil faoliyatga kirishishni taminlash;
- ✓ o'z-o'zini baholash va yuqori marralarni zaf etish.

Ta'lism texnologiyasi –ta'lism maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni,ya'ni,avvaldan loyihalashtirilgan ta'lism jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma –bosqich amalga oshirish,aniq maqsadga erishish yo'lida muayyan metod,usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta'lism jarayonini yuqori darajada boshqarishni ifodalaydi.

O'qituvchini samarali faoliyat ko'rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasidan farqli o'laroq, ta'lism texnologiyasi o'quvchilar faoliyatiga nisbatan yo'naltirilgan bo'lib, u o'quvchilarning shaxsiy hamda o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda, o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi –o'quvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta'lism maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat.

“Ta'lism texnologiyasi” xususida yaratilgan adabiyotlarda ushbu tushunchaga berilgan ta'riflarga asoslangan holda ushbu tushuncha quyidagicha sharhlangan :

pedagogik texnologiya muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmunidir.

### Xulosa

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchi va o'qituvchilarni mustaqil fikrashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrashlarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda amaliyotini hayot bilan bog'lash hamda darsga qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lism-tarbiya jarayonini sifatini yaxshilaydi. Shuning uchun har bir yosh avlod bularni mukammal o`rganishi eng oliy maqsadi bo`lmog`i lozim.

Davlat ta'lism standard o'quvchilarning har biriga ta'lism olishda teng imkoniyatlarni yaratib berish,har birining yuqori natijaga erishishlarini rag'badlantirish va shu orqali o'quv- bilim jarayoning farqli tashkil etilishini ta'minlash uchun da'vat etilga. Davlat ta'lism standarlarining o'quv fani bo'yicha, ta'lism sohalari bo'yicha ishlab chiqarilishi o'quv fanlarining variantini tanlash asosida o'quv metodik majmualar, jumladan, boshlang'ich sinflarda matematikao'qitishni takomilashtirishni nazarda tutadi. Boshlang'ich sinflarda arifmetik amallar bajarishni bog'lanish va bilimlarni muvofiqlashtirish tamoyili asosida o'quv fanlarining ichki bog'liqligi va o'quv fanlari aro uzviylikni ta'minlashga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinflarda arifmetik amallar bajarish talablarining o'quvchilar tomonidan bajarilishi ularning tevarak zarur bilim, malaka va konikmalarni egallahlariga yordam beradi.

Arifmetik amallarga doir material konsentrلarga bo'lib o'rganiladi. Hammasi bo'lib 5 ta konsentr ko'zda tutiladi: o'nlik, ikkinchi o'nlik, yuzlik, minglik, ko'p xonali sonlar. Har bir konsert o'z mazmuniga ko'ra sistematik arifmetika kursining asosiy masalalarni aks ettiradi, shiming uchun o'quvchilar u yoki bu chegaralar ichida sonlar ustida amallarni o'rganar ekanlar, umuman arifmetikaning mohiyati to'g'risida tasavvur hosil qildilar. Har gal yangi sonli material asosida amallar bajarishga qayta-qayta murojaat etish eng muhim arifmetik tushunchalarning mazmunini

chuqurlashtirish va kengaytishga imkon beradi. Bundan tashqari, mustahkam o'quv va malakalarning asta-sekin shaklanishi ( sanoqda, o'lhashlarda, og'zaki va yozma nomerlashda, hisoblashda va h.k ta'minlanadi, chunki bu amallarni bajarishning usullari umumiylikni saqlagan holda asta-sekin murakkablashtirib boradi. Shunday qilib, har bir oldingi korstrndra nomerlash va arifmetik amallarni o'rganish mos masalalarni kelgusida o'rganish uchun tayyorgarlik ishi bo'lib hisoblanadi, har bir keyingi honsentrda esa ilgari o'ganilgan material umumlashtiriladi va mustahkamlanadi. Arifmetika kursining konsentrik tuzulishi kichik yoshdagi o'quvchilarni psixologik xususiyatlarga mosdir : sanoq o'lhash, arifmetik amallar bilan dastlabki tanishtirishni narsalar to'plamlari yordamida ko'rsatish bo'lgan katta bo'lмаган рақамлар misolida bajarish zarur son sohasini sekin - asta kengaytirib borish ham ko'rgazmali - harakatli amallardan abstrakt amallarga o'tish orqali bolalarning fikrlarini rivojlantirish bilan moslashtiriladi. Har bir konsentrning ajratib berish sabablarini, bu konsentr ichida sonlarni nomerlashni o'rganish uslubini shuningdek, arifmetik amallarni o'rganish usulini batafsil bayon qilamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Tolipov U.K., Sharipov Sh.S. O'quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari. - T., Fan, 2012
2. Yo'ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. - T: Fan va texnologiya, 2008
3. [www.yandex.ru](http://www.yandex.ru)
4. [www.zyonet.uz](http://www.zyonet.uz)



# INTERNATIONAL JOURNAL OF INNOVATIVE RESEARCH

IN SCIENCE | ENGINEERING | TECHNOLOGY

9940 572 462 6381 907 438 ijirset@gmail.com

